XALQ DEPUTATLARI NAVBAHOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-019-5-73-K/24 Navbahor tumani

Navbahor tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga muvofiq hamda Navoiy viloyati Moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 27-dekabrdagi 01-12/20-04-32/1008-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Navbahor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Navbahor tumani tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun daromadlari 75 855,7 mln. so‘m, xarajatlari 117 708,5 mln. so‘m, viloyat budjetidan olinadigan tartibga soluvchi transfertlar 41 852,8 mln. so‘mga tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2025-yil uchun Navbahor tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2026-2027-yillarga maqsadli prognozi mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

2025-yil uchun tumanning mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq;

2025-yil tuman mahalliy budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;

2025-yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2025-yil uchun tuman mahalliy **budjet**ining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2025-yil uchun viloyat **budjet**idan tuman mahalliy **budjet**iga ajratiladigan tartibga soluvchi **budjet**lararo transfertlar miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi **budjet**lararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy **budjet**i daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2025-yil uchun tumanning tuman **budjet**i zaxira jamg'armasi hajmi 1764,2 mln. so'm miqdorida belgilansin.

Belgilab qo'yilsinki, tuman budjetini ijro etish chog'ida yuqori turuvchi budjetdan ajratiladigan budjetlararo transfertlarning miqdorlari oshgan taqdirda tegishli budjetlarning zaxira jamg'armalarining tegishli miqdorlari qayta ko'rib chiqilmaydi.

2025-yil uchun tumanning tuman mahalliy budjeti aylanma kassa mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **7-ilova**ga muvofiq belgilansin.

8. Qonun bilan 2025-yilda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining mahalliy **budjet**larni boshqarishda, xususan mahalliy **budjet** xarajatlarini hududiy **budjet** mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

2025-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining kamida 50 foizi (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

9. Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan:

- tumanlar hamda shaharlarning ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o'sib boruvchi koeffisiyentlarni joriy etishga haqli ekanligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 25-oktyabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan:

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman(shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

b) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 mlrd. so‘m mablag‘ rejalashtirish belgilanganligi;

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Jumaboyev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Xotamov), Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Berdiyev) va mas’ul muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetining prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Berdiyev)ga:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirilishini;

barcha soliq turlaridan doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rilishini;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirilishini;

Kadastr agentligi tuman filiali (Sh.Isoqov) bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini;

Aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazorati o‘rnatilishini hamda kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga e’tibor qaratsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (F.Ergashev), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi Navoiy mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

14. Majburiy ijro byurosi Navbahor tuman bo‘limi (Sh.Jumaqulov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Berdiyev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko‘rib borsin.

15. Tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

16. Tuman hokimining o‘rinbosari (M.Abdullayev) Bo‘sh turgan ob’yektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini «ye-auksion» elektron savdo platformasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish choralarini ko‘rsin.

17. Tuman hokimining o‘rinbosari (M.Abdullayev), tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Berdiyev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Xotamov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2025-yilning 1 iyuliga qadar 2024-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2025-yilning 1-sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

18. Tuman hokimining o‘rinbosari (M.Abdullayev) tashqi reklama ob’yektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’yektlari bo‘yicha shartnomalar

tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

19. Tuman Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi (U.Nazarov) va tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Berdiyev) bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetga to‘liq undirib olish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borilishini ta’minlasin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

20. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Xotamov):

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har chorak yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

21. Xalq deputatlari tuman Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga, natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

22. Tuman hokimligi:

Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi

ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

23. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Jumaboyev), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

24. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

25. Mazkur qaror “Navbahor tongi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

26. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

27. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Jumaboyev va xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish, xorijiy investisiyalar va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.Abdiyev) va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  O‘ROQOV AZAMAT SHODIYEVICH

Xalq deputatlari Navbahor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-019-5-73-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Navbahor tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2026-2027-yillarga maqsadli prognozi mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2025-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2026-yil	2027-yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	X	X	X
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	X	X	X
3.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	107,7	107,6	107,8
4.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	103,6	103,6	103,7
5.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	106,0	106,3	107,0

Xalq deputatlari Navbahor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-019-5-73-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Navbahor tumanining tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Miqdori (ming so‘m)
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	7 830 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	27 414 500
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	246 000
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
6	Aksiz solig‘i, jami	0
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	0
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 524 000
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 610 000
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	9 832 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	14 200 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	650 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 216 200
13	Davlat boji	
14	Jarimalar	0
15	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	333 000
16	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0
17	Yig‘imlar	0
JAMI Daromad		**75 855 700**

Xalq deputatlari Navbahor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-019-5-73-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarining umumiy cheklangan miqdorlari

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori (ming so‘mda)
Xarajatlar miqdori, Jami		**117 708 499,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**117 708 499,0**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**0,0**
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	**0,0**
1	**Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**27 617 838,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	27 617 838,0
	- maktabgacha ta’lim	9 259 688,0
	- umumiy ta’lim	18 358 150,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Tuman Madaniyat bo‘limi**	**3 115 601,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 115 601,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Tuman Sport maktablari**	**11 868 315,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 868 315,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi**	**1 737 595,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 737 595,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish**	**3 706 735,0**

	bo‘limi	
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 706 735,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Tuman Hayvon kasalliklari tashhisi va oziq-ovqat xavfsizligi davlat markazi**	**627 709,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	627 709,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi**	**487 552,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	487 552,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi**	**23 346 814,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	19 156 710,0
	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 190 104,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 594 920,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 594 920,0
	shu jumladan: saqlash xarajatlariga	2 594 920,0
	Fuqarolarga yetkazilgan zararni qoplash	
	Viloyatdan tuman va shahar mahalliy budjetlariga beriladigan transfertlar	
	Indeksatsiya mablag‘lari	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi**	**5 235 923,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 235 923,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Tuman hokimligi**	**35 928 497,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	35 928 497,0
	Shu jumladan: saqlash xarajatlari	2 741 912,0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"	46 200,0
	Tuman Xalq qabulxonasi	139 610,0

	Xokim yordamchilari	5 050 952,0
	Hokimliklarning zahira jamg‘armalari	1 764 187,0
	Tuman oila va xotin qizlar bo‘limi	1 923 040,0
	Tuman Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	294 142,0
	Tuman ijtimoiy moslashish markazi	58 059,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	23 910 395,0
	Shundan:	
	Mening baktabim	2 166 732,0
12	**"Mahalla budjeti" jamg‘armasi**	**1 441 000,0**

Xalq deputatlari Navbahor tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-019-5-73-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yorlari

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq
1	Navbahor tumani	100	100	100	100	100	50	100	100

Xalq deputatlari Navbahor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-019-5-73-K/24 -son qaroriga
5-ilova

2025-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlar va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**75 855 700**	**117 708 499**
Navbahor tumani	75 855 700	117 708 499

Xalq deputatlari Navbahor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-019-5-73-K/24 -son qaroriga
6-ilova

2025-yil uchun tuman mahalliy budjetiga yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori (ming so‘mda)**
JAMI	**41 852 799**
shundan	
Navbahor tumani	41 852 799

Xalq deputatlari Navbahor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-019-5-73-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Tuman mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

T/r	Hudud nomi	Miqdor (ming so‘mda)
	JAMI	**711 361**
	shundan	
1	Navbahor tumani	**711 361**